ZAMONAVIY TA’LIM MUHITIDA TARBIYA FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .

Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti
MIG‘MAXT yo‘nalishi 201-guruh talabasi
Tursunov Jasurbek Ruslan o‘g‘li
https://doi.org/10.5281/zenodo.20098088

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim muhitida tarbiya fanining rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil etiladi. Asosiy maqsadi — tarbiya fanining tarixiy shakllanishi, uning bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonini aniqlash hamda globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida uning mazmun-mohiyatidagi o‘zgarishlarni yoritishdan iborat. Bu jarayonda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali tarbiya fanining an’anaviy, modern va innovatsion bosqichlari ilmiy asosda ajratib ko‘rsatildi. Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy bosqichda tarbiya axloqiy qadriyatlar va ustoz-shogird an’analariga asoslangan bo‘lsa, modern bosqichda ilmiylik va tizimlilik ustuvor bo‘ldi. Innovatsion bosqichda esa raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim muhitida tarbiya jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijtimoiy, madaniy va axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, tarbiya fanining rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, zamonaviy ta’lim, pedagogika, rivojlanish bosqichlari, innovatsion yondashuv, kompetensiya, raqamli pedagogika, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, milliy qadriyatlar.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДМЕТА ВОСПИТАНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится всесторонний научно-теоретический анализ этапов развития воспитательной науки в условиях современной образовательной среды. Основная цель исследования заключается в изучении исторического становления воспитательной науки, определении её ключевых этапов развития, а также выявлении изменений в её содержании в условиях глобализации и цифровизации. В ходе исследования были использованы методы исторического анализа, системного подхода, сравнительного анализа, педагогического наблюдения и обобщения. На основе проведённого анализа выделены три основных этапа развития воспитательной науки: традиционный, модернистский и инновационный. Результаты исследования показывают, что на традиционном этапе воспитание базировалось на моральных ценностях и системе «учитель–ученик». В модернистский период усилилось значение научного подхода и системности. В инновационный период приоритетное значение приобретают цифровые

технологии, компетентностный подход и личностно-ориентированное обучение. Кроме того, установлено, что в современной образовательной среде воспитание направлено не только на передачу знаний, но и на формирование социальных, культурных и нравственных компетенций личности. В заключение отмечается, что развитие воспитательной науки тесно связано с развитием общества, а повышение её эффективности требует внедрения инновационных методов и гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: воспитание, современное образование, педагогика, этапы развития, инновационный подход, компетенция, цифровая педагогика, личностно-ориентированное образование, национальные ценности.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE SUBJECT OF EDUCATION IN THE MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT.

ANNOTATION

This article provides a comprehensive scientific and theoretical analysis of the stages of development of upbringing science in the modern educational environment. The main objective of the research is to examine the historical formation of upbringing science, identify its developmental stages, and analyze the transformations in its content under the conditions of globalization and digitalization. The research employs methods such as historical analysis, systematic approach, comparative analysis, pedagogical observation, and generalization. Based on these methods, the development of upbringing science is classified into three major stages: traditional, modern, and innovative. The findings indicate that during the traditional stage, upbringing was primarily based on moral values and teacher-student relationships. In the modern stage, scientific approaches and systematization became dominant. In contrast, the innovative stage is characterized by the integration of digital technologies, competency-based education, and student-centered learning approaches. Furthermore, it has been identified that in the contemporary educational environment, upbringing is not limited to knowledge transmission but also focuses on developing social, cultural, and ethical competencies of individuals. In conclusion, the development of upbringing science is closely linked with societal progress, and its effectiveness can be enhanced through the implementation of innovative pedagogical technologies and the integration of national and universal values.

Keywords: Upbringing, modern education, pedagogy, stages of development, innovative approach, competence, digital pedagogy, student-centered education, national values.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi globalizatsiya, raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Ushbu jarayonda tarbiya fani nafaqat ta’lim jarayonining ajralmas qismi, balki shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi asosiy yo‘nalish sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.Tarbiya fani pedagogika ilmiy tizimining markaziy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, u tarixiy taraqqiyot davomida turli bosqichlardan o‘tgan. Bugungi kunda esa raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi asosida yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.Shuningdek, milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar uyg‘unligi tarbiya jarayonining mazmunini boyitib, zamonaviy ta’lim

muhitida uning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu sababli, tarbiya fanining rivojlanish bosqichlarini o‘rganish bugungi pedagogik ilm-fan uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi[1]. Tarbiya — bu nafaqat axloqiy qadriyatlarni singdirish jarayoni, balki shaxsning ma’naviy, intellektual, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini ta’minlovchi murakkab pedagogik tizimdir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda tarbiya inson shaxsini shakllantirishning asosiy mexanizmi sifatida ko‘riladi. Shu sababli, tarbiya fani rivojlanishining tarixiy va zamonaviy bosqichlarini tahlil qilish pedagogika fanining ilmiy asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Shu sababli, zamonaviy ta’lim muhitida tarbiya fanining rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, uning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish hamda istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Tarbiya fanining rivojlanish jarayoni turli tarixiy davrlarda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holati, madaniy qadriyatlari va ilmiy qarashlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib kelgan. Dastlabki bosqichlarda tarbiya diniy va an’anaviy qadriyatlarga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik u ilmiy-pedagogik asosga ega tizimga aylangan. Bugungi kunda esa tarbiya jarayoni raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida rivojlanmoqda.Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeli tarbiyani individual yondashuv asosida tashkil etishni talab qilmoqda. Bu esa har bir o‘quvchining qobiliyati, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Tarbiya fani qadimgi davrlardan boshlab shakllangan bo‘lib, uning dastlabki bosqichlarida axloqiy me’yorlar, diniy qarashlar va urf-odatlar asosiy tarbiya vositasi bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari, jumladan Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiy asarlarida tarbiya inson kamolotining asosiy omili sifatida talqin etilgan[2].

Keyingi bosqichda, ya’ni klassik pedagogika davrida Y.A. Komenskiy, J.J. Russo, K.D. Ushinskiy kabi olimlar tarbiyani ilmiy asosda o‘rganib, uni tizimli jarayon sifatida shakllantirdilar[3].Birgina XXI asrga kelib, tarbiya fani yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, loyihaviy ta’lim va muammoli o‘qitish texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Bu esa tarbiya jarayonini faollashtiradi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi[4]. Zamonaviy ta’lim tizimida asosiy e’tibor bilim hajmiga emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya fani esa ijtimoiy, kommunikativ va axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi ta’lim tizimida bilim emas, balki kompetensiya — ya’ni bilimni amaliyotda qo‘llash qobiliyati muhim hisoblanadi. Tarbiya fani esa ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi[5]. Raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, elektron darsliklar, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari, tarbiya jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa o‘quvchilarda raqamli madaniyat va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantiradi[6]. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish zamonaviy tarbiya tizimining asosiy tamoyiliga aylangan. Bu yondashuv shaxsning ichki salohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogikada har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlari asosida ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi. Bu yondashuv shaxsning to‘liq rivojlanishini ta’minlaydi[7]. Zamonaviy tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda global umuminsoniy qadriyatlar ham uyg‘unlashtirilmoqda. Bu esa yosh avlodda ochiq fikrlash va milliy o‘zlikni

saqlash muvozanatini ta’minlaydi. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy merosni o‘quvchilarga singdirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa yosh avlodning milliy o‘zlikni anglashini kuchaytiradi[8]. Bugungi kunda tarbiya fani nafaqat ta’lim tizimining bir qismi, balki jamiyat barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. U yosh avlodni vatanparvarlik, ma’naviy yetuklik, huquqiy ong va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tarbiya fanining rivojlanishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1.An’anaviy bosqich – diniy va urf-odatlarga asoslangan tarbiya

2.Klassik pedagogik bosqich – ilmiy-pedagogik asoslarning shakllanishi

3.Sovet pedagogikasi bosqichi – tizimli, markazlashgan ta’lim modeli

4.Mustaqillik davri bosqichi – milliy qadriyatlar asosidagi islohotlar

5.Zamonaviy innovatsion bosqich – raqamli pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv asosidagi tizim[9]

Umuman olganda , zamonaviy bosqichda tarbiya fani innovatsion, integrativ va ko‘p darajali tizim sifatida namoyon bo‘lib , u barkamol, ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk va raqobatbardosh shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi deb aytish joizdir . Shu bois tarbiya fanining nazariy – metodologik asoslarini chuqurlashtirish , uni integratsiyalash va zamonaviy pedagogik texnalogiyalar bilan boyitish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi .

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tarbiya fani zamonaviy ta’lim muhitida doimiy rivojlanib borayotgan dinamik tizim hisoblanadi. Uning rivojlanish bosqichlari jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ilmiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.Bugungi kunda tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar, raqamli pedagogika va kompetensiyaviy yondashuvning keng qo‘llanilishi uning samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari tarbiya jarayonining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib qolmoqda.Demak, tarbiya fanining zamonaviy rivojlanish bosqichi nafaqat bilim berishga, balki barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks tizim sifatida qaralishi lozim. Zamonaviy ta’lim muhitida tarbiya fanining rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-pedagogik evolyutsiyaning uzviy tarkibiy qismi bo‘lib, u jamiyatning sivilizatsion taraqqiyoti, madaniy transformatsiyasi hamda ilmiy-texnologik innovatsiyalar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi. Tarbiya fani o‘z taraqqiyotida an’anaviy normativ yondashuvlardan boshlab, tizimli-didaktik, ideologik yo‘nalishlar orqali hozirgi zamonaviy integrativ va kompetensiyaviy paradigmaga qadar rivojlanganini kuzatish mumkin. tarbiya fani jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda doimiy doimiy rivojlanib kelmoqda .Tarbiya tarixiy bosqichlarda turli shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lsada, uning maqsadi ham barkamol shaxsni shakllantirishdir . Hozirgi globallashuv, axborotlashuv va raqamli transformatsiya sharoitida tarbiya fani o‘zining an’anaviy normativ-funksional chegaralaridan chiqib, integrativ-pedagogik paradigma doirasida qayta talqin etilmoqda. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini sifat jihatidan yangilab, uni shaxsning kognitiv, aksiologik va prakseologik komponentlarini uyg‘un rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimga aylantirmoqda. Tarbiya fani nafaqat axloqiy va ma’naviy yo‘nalishda , balki raqamli savodxonlik, fuqarolik kompetensiyasi va global fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda . Shuning uchun tarbiya fanini yanada

takomillashtirish, uni zamonaviy pedagogik texnalogiyalar bilan boyitish bugungi ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Forobiy A. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Ushinskiy K.D. Pedagogik asarlar to‘plami. – Moskva: Pedagogika, 1988.
4. Komenskiy Y.A. Buyuk didaktika. – Praha, 1657 (zamonaviy nashr: 2010).
5. OECD. Key Competencies for a Successful Life and Well-Functioning Society. – Paris, 2019.
6. UNESCO. Digital Pedagogy in Education. – Paris, 2021.
7. Rogers C. Freedom to Learn. – New York: Merrill, 1969.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. Nazarova H., Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.